



## INFLUENCE OF TERRORIST ORGANIZATIONS ON THE GOVERNANCE AND DEFENSE CAPABILITY OF MIDDLE EAST STATES

**G.T. Yettiboyev**

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic  
of Uzbekistan

Senior Instructor of Weapons and Shooting Course Lieutenant  
Colonel

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084390>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> September 2025

Accepted: 08<sup>th</sup> September 2025

Online: 09<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

State administration, defense  
capability, special operations,  
terrorist organizations  
(groups), military personnel,  
influence, battle, state, army.

### ABSTRACT

*The article discusses the impact of terrorist groups on state management and defense capabilities. The relations of Uzbekistan with the countries of the Near and Middle East, the events and changes taking place in these regions of the world, as well as the process of analyzing and studying the measures taken to combat terrorism in Syria, have been scientifically and practically studied. In response to these developments, efforts have been made to strengthen the defense capability of our state and improve the combat readiness of the servicemen of the Armed Forces.*

## ВЛИЯНИЕ ТЕРРОРИСТИЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА УПРАВЛЕНИЕ И ОБОРОНОСПОСОБНОСТЬ ГОСУДАРСТВ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

**Г.Т. Еттибоев**

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики  
Узбекистан

Старший преподаватель курса огневой подготовки и стрельбы подполковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084390>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> September 2025

Accepted: 08<sup>th</sup> September 2025

Online: 09<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Осударственное управление,  
оборонеспособность,  
специальные операции,  
террористические  
организации (группировки),  
военнослужащие, влияние,  
бой, государство, армия.

### ABSTRACT

*В статье рассматривается влияние террористических группировок на государственное управление и оборонеспособность. Научно и практически исследованы взаимоотношения Узбекистана со странами Ближнего и Среднего Востока, события и изменения, происходящие в этих частях мира, а также процесс анализа и изучения мер по борьбе с терроризмом, принимаемых в Сирии, повышение оборонеспособности нашего государства в ответ на происходящие изменения и*



## TERRORISTIK TASHKILOTLARNING YAQIN SHARQ DAVLATLARI BOSHQARUVIGA VA MUDOFAA QOBILIYATIGA TA'SIRI

**G.T.Yettiboyev**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi

Qurol-aslaha va o'q otish sikli katta o'qituvchisi podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084390>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> September 2025

Accepted: 08<sup>th</sup> September 2025

Online: 09<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

*Davlat boshqaruvi, mudofaa qobilyati, maxsus operatsiya, terroristik tashkilotlar (guruhlar), harbiy xizmatchilar, ta'sir, jangovar, davlat, harbi qo'shin.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada davlat boshqaruvi va mudofaa qobilyatiga terroristik guruhlarining ta'siri masalasi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. O'zbekiston Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan munosabati, dunyoning ushbu nuqtalarida sodir bo'layotgan voqealar va o'zgarishlar, shuningdek, Suriyada olib borilgan terrorizmga qarshi tadbirlar jarayonini tahlil qilish va o'rganib borish, bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan davlatimiz mudofaa qobilyatini oshirish va Qurolli Kuchlarimizdagi harbiy xizmatchilar jangovar tayyorgarligini takomillashtirish ilmiy-amliy jihatdan tadqiq etilgan.*

**Kirish (Introduction).** Hozirgi kunga qadar, "Iroq va Shom Islom Davlati" deb nom olgan terroristik tashkilot nafaqat yaqin sharq davlatlariga qolaversa, O'rta Osiyo davlatlariga ham xavf tug'dirayotgani hech kimga sir emas. 2011-yilning mart oylarida "Arab bahori" nomi bilan boshlangan qo'zg'olonlar yaqin sharq davlatlarida ommaviy tartibsizliklar, qurolli mojaro va qo'zg'olonlarni yuzaga keltirdi hamda, davlat mudofaa qobilyatini izdan chiqardi. 2014-yil aprel oyida Suriya davlati Qurolli Kuchlariga qarshi noqonuniy qurollangan terroristlar faoliyati keskin darajada jadallashgan edi. Dunyo ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlariga ko'ra, ushbu qurolli mojarolar natijasida 300 ming tinch aholi qurbon bo'lgan, jangovar harakatlar sodir bo'layotgan hududlardan millionlab odamlar o'z uylarini tashlab qo'shni davlatlarga qochib ketishga majbur bo'lishgan edi. Suriya Arab Respublikasi Qurolli Kuchlari tomonidan noqonuniy qurollangan terroristik tashkilotiga qarshi olib borilayotgan tadbirlar deyarli shahar sharoitida amalga oshirilgan. Noqonuniy qurollangan terroristik tashkilotlar jangovar harakatlarni olib borishlari uchun aynan shahar qulay sharoit yaratgan, chunki, davlatda muntazam kuchlar ustun bo'lib, shaharda ma'lum darajada texnikaviy (yirik kalibrli qurollar) neytral holatga keltirilgan.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** 2015-yili jahonda terrorizmga qarshi kurash olib borayotgan qaynoq nuqtalardan biri bo'lgan Suriya Arab Respublikasidagi terroristik tashkilotlarning qurolli to'qnashuvlardagi mohiyatiga



qisman to'xtalamiz [1]. Suriyadagi terroristik tashkilotlar hukumat qo'shinlariga qarshi kurashni ikki bosqichda amalga oshirgan: **1-bosqich:** Maxsus operatsiyaga tayyorgarlik, ushbu bosqichda: harakat hududini batafsil razvedka qilish va jangovar harakat o'tkaziladigan hududni va jangarilarni jangovar harakatlarga tayyorlashni o'z ichiga oladi. **2-bosqich:** Hukumat qo'shinlarini yakson qilish va hududni egallash maqsadida jangovar operatsiyalarni o'tkazish. Shu maqsadda ular o'z kuch va vositalarini 3 ta guruhga ajratgan:

**1-guruh:** Markaziy guruh hisoblanib, jangarilar komandiri qo'l ostida jangovar harakatga shay holda bo'ladilar, ammo ular doimiy dislokatsiyaga ega bo'lmagan, tarkibi o'rtacha 50 kishidan iborat bo'lgan.

**2-guruh:** Jangovar operatsiya o'tkaziladigan hududda bo'lib, faqat markaziy guruh komandiri bilan aloqada bo'ladi, tarkibi o'rtacha 20 kishidan iborat.

**3-guruh:** Doimiy o'z uylarida bo'ladigan guruh a'zolari, ular faqat komandir chaqiruv bo'yicha ish tutadilar, tarkibi o'rtacha 20-30 kishidan iborat bo'lgan. Islom davlati jangari tuzilmalari shahar sharoitida hududni egallash uchun olib boradigan operatsiyalari to'rtta davrdan iborat bo'lgan:

*1-davr:* aholi yashash punktlarini ishg'ol etish va bosib olish. Ishg'ol etish asosan tungi vaqtlarda 5-8 kishidan iborat bosh dozor orqali amalga oshirilgan. Aholi punktlarining eng chekkasidagi uylar ishg'ol etilgach, kuzatuv amalga oshiriladi. Xavf yo'qligi aniqlangach, jangovar guruhlar oldinga chiqariladi.

*2-davr:* jangovar guruhlarini oldinga chiqishi, politsiya otryadlarini qurolsizlantirish, joyni muhandislik jihozlash. Jangari guruh aholi yashash punktini ikki yo'nalish bo'yicha ishg'ol etadi. Birinchi yo'nalish: politsiya xodimlari qo'lga olinib, qurolsizlantiriladi. Ikkinchi yo'nalish: joylar niqoblanadi.

*3-davr:* asosiy guruh hududni egallash uchun chiqishi. 5-10 metrlik oraliq masofa bilan kolonna tarkibida hududga harakat boshlanadi. Xavfli joylar ochiq joy orqali emas, balki uy yerto'lalari, kanalizatsiya yo'llari va qavatli uylar orqali amalga oshiriladi. Xavf haddan ziyod ortganda, jangarilar qurollarni yashirib, oddiy fuqaro singari hududdan chiqib ketadilar.

*4-davr:* davlat qurolli kuchlari bilan jangovar harakatlar olib borish va jangdan so'ng chekinish. Terroristik guruhlarining qurolli mojaralarda asosiy jang olib borish usullari: bosqin, pistirma, pistirma-tuzoq, qo'porish, portlatish [2].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Suriya davlati QK tomonidan maxsus operatsiyalar o'tkazish chog'ida qo'llanilgan maxsus jangovar-taktik harakatlar strategiyasi quyidagicha:

Dastlab hudud qurshab olinadi va tinch aholi evakuatsiya qilinadi. Keyin terrorchilarga yordam kuchlari yetib kelishi va jangarilarning hududdan qochib ketishini oldini olish maqsadida blokpost va nazorat o'tkazish punktlari o'rnatilgan. Hududdagi qurolli to'qnashuvlar mobaynida texnogen favqulodda holatlarning oldini olish uchun hududdagi gaz va elektr tarmog'lari uzilgan. Aviatsiya va artilleriyadan zarbalar berilgan. Zirhli texnikalar bilan dushman yashirin ob'ektlari o'qqa tutilgan. Qolgan dushmanlardan hududni tozalash uchun piyoda qo'shinlar maxsus operatsiya hududiga kiritilgan.



So'ngi yillarda Suriya armiyasi tomonidan qo'llanilayotgan uchuvchisiz uchuv apparatlari qurolli to'qnashuvlar mobaynida havodan razvedkani olib borishi keskin o'zgaruvchi vaziyatda komandirlarning to'g'ri va tezkor qaror qabul qilishiga va dushmanning kuch va vositalarini yo'q qilinishiga omil bo'lgan. Terrorizmga qarshi o'tkazilayotgan janglar tajribasidan ma'lumki, terroristlar bilan kurash olib borish vaqtida qoidaga ko'ra, dushman bilan to'qnash kelgunga qadar ya'ni masofali o't ochish jangida yo'q qilish lozimligini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga jangarilarni masofadan turib o't ochib yo'q qilishda aviatsiya va artilleriyaning ham roli muhimdir.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Jangda aviatsiya va artilleriyaning samarasini oshirish maqsadida malakali aviayo'naltiruvchilar va artilleriya korrektirovkachilar dushman joylashgan ob'ektlarni maxsus kuzatuv moslamalari yordamida va ko'z bilan kuzatib jangarilar harakatlarini nazoratda ushlab kerak. Shahar sharoitida, bino, yerto'la, cherdak va shunga o'xshash joylardagi dushmanning otish nuqtalarini yo'q qilishda pulemyot, mergan va granatomyotlarining mavjudligi ham jangning samarasini oshirgan. Shahar sharoitida jangning muvaffaqiyatiga razvedka ma'lumotlarining muhimligini hisobga olib, razvedka bo'linmalari tarkibiy shtat tuzilmalariga taktik jihatdan o'zgartirish kiritish, ya'ni ularning tarkibini texnik vositalarni kuzatuv operatori va uchuvchisiz uchuv apparatlari bilan kuchaytirish lozimligini taqozo etmoqda. Hozirgi tahlikali keskin o'zgaruvchan zamonda qurolli mojarolarning ham olib borish taktikasi yuqori sur'at bilan o'zgarib bormoqda. O'tgan asrlardagi an'anaviy (klassik) jangovar harakatlardan hozirgisi tubdan farq qilib, kichik-kichik guruh va bo'linmalar tarkibida harakatlanib, yuqori manyovrchanlik, tezkorlik, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilib, davlatimiz xavfsizligi yo'lida jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarish talab etilmoqda. Dunyo harbiy tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, zamonaviy harbiy mojarolarda ko'p hollarda muntazam Qurolli Kuchlar noiloj bo'lib qolmoqdalar. Ular nomuntazam kuchlarga nisbatan samarali kurashish imkoniyatiga ega emas. Shahar sharoitidagi no'anaviy jangovar harakatlarga 2006-yildagi Livan urushidagi "Xizbulloh" tashkilotining harakatlari misol bo'la oladi. O'sha jangovar harakatlar vaqtida yashirin pozitsiyalar va yer osti tonnellaridan foydalangan holda, shuningdek, Livanning aholi punktlarida manyovrlar amalga oshirib Isroil armiyasi kuchlarini neytralizatsiya holatiga keltirdi. Ushbu taktika natijasida Isroil armiyasi, Livan bilan Isroil chegarasidagi aholi yashash punktida ikki hafta davomida "Xizbulloh" tashkiloti pozitsiyalariga nisbatan samarasiz hujumlar amalga oshirgan. Barcha ustunlik Isroil armiyasida bo'lib, zamonaviy jangovar imkoniyatlar va aviatsiya qo'llanganligi sababli "Xizbulloh" a'zolarini tor-mor qilishga erishgan. Yaqin sharq davlatlarida faoliyat yuritayotgan "Islom davlati"ning muntazam kuchlarga qarshi olib borayotgan terroristik harakatlarni baholaydigan bo'lsak, aynan no'anaviy qurolli mojarolar sinfiga kiradi [3]. Bu borada, davlatimizda ham shahar sharoitida maxsus tadbirlarni o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish va olib borish jarayonlarida alohida kamchiliklar aniqlangan. Shulardan kelib chiqib shahar sharoitida no'anaviy jangovar harakatlarni olib borish asoslari va o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda. Vaziyatdan kelib chiqib shahar sharoitida binoni mudofaa qilish, har bir binoda joylashgan harbiy qism, boshqarma yoki bo'linma shaxsiy tarkibining zimmasiga yuklatiladi. Binoga to'satdan



hujum bo'lgan vaziyatlarda asosan o'sha binoda boshqarma yoki bo'linma shaxsiy tarkibi joylashgan bo'ladi. Bunga 2005-yilgi Andijon voqealari yaqqol misol bo'la oladi. O'sha jangovar harakatlarda qatnashgan maxsus bo'linma harbiy xizmatchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'sha davrdagi qo'shinlar o'rtasidagi hamkorlik talab darajasida bo'lmaganligi, noqonuniy qurollangan shaxslar harbiy qismga va post patrul xizmati binosiga kirib kelishi hamda qurollarni egallashiga sabab bo'lgan. Viloyat Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) boshqarmasi va Ichki ishlar boshqarmasi (IIB) hamda maxsus bo'linma shaxsiy tarkibining oldindan bo'ladigan xavfga tayyorgarligi, yaxshi tashkil etilganligi judayam qo'l kelgan. Aks holda viloyat MXX boshqarmasi va IIB binosi buzg'unchi terrorchilar qo'liga o'tgan bo'lar edi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat faoliyati Konsepsiyasida ko'rsatib o'tilganidek, ya'ni O'zbekiston Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan yaqindan munosabatda bo'lib, dunyoning ushbu nuqtalarida sodir bo'layotgan voqealar va o'zgarishlarni inobatga olib rivojlanishda davom etadi. Shu munosabat bilan Suriyada olib borilgan terrorizmga qarshi tadbirlar jarayonini tahlil qilish va o'rganib borish, bo'layotgan o'zgarishlarga nisbatan davlatimiz mudofaa qobiliyatini oshirish va Qurolli Kuchlarimizdagi harbiy xizmatchilar jangovar tayyorgarligini takomillashtirib borish judayam muhimdir.

### References:

1. Интернет сайты. ртгх://www. Война в Сирии., Фёдоров Т.Р.,
2. Bryan Lee. [The Impact of Cyber Capabilities in the Syrian Civil War](#) (angl.) // Small Wars Journal. — 2016. -252-253-p.
3. Hubbard, Anne Barnard, Ben; Fisher, Ian (15 April 2017)". The New York Times. 2017. -56-58-p.
4. Charles Glass. [«Tell Me How This Ends»](#) // [Harper's Magazine](#). - 2019. -79-81-p.